

# **Xalqaro aloqalarni mustahkamlamoqdamiz: "Uzbekistan Airways" Turkiya turizm bozorida hamkorlikni kengaytirmoqda**

**2026 12 Iyun**

11-iyun kuni Istanbulda "Uzbekistan Airways" vakolatxonasi "Ender Turizm" agentligi bilan hamkorlikda Turkiyaning yetakchi sayyohlik kompaniyalari rahbarlari, korporativ hamkorlar va O'zbekiston Respublikasining Bosh konsulini birlashtirgan sohaviy biznes-nonushta tashkil etdi.

Ishbilarmonlik muloqotining asosiy mavzusi ikki tomonlama hamkorlikni strategik jihatdan kengaytirish va mamlakatimizning boy sayyohlik salohiyatini targ'ib qilishdan iborat bo'ldi. Uchrashuv doirasida biz aviakompaniya yo'nalishlar tarmog'ining dolzarb imkoniyatlarini taqdim etdik va yo'lovchilar oqimini muntazam ravishda oshirishga qaratilgan yangi tashabbuslarni yo'lga qo'yish istiqbollari batafsil muhokama qildik.



Tadbir yakunlari turk biznes vakillarining qo'shma sayyohlik mahsulotlarini yaratishga bo'lgan yuqori qiziqishini yana bir bor tasdiqladi. "Uzbekistan Airways" O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ishbilarmonlik va madaniy aloqalarni rivojlantirishda ishonchli bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajarishda davom etib, uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.